



IJOBIIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY OMILLARNING O'RNI

Yabbarbergenova Shadigul Abdullayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar

1-sonli kasb-hunar maktabi o'zbek til fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining hayot yolidagi ijobiy istak mazmunini bildiruvchi birliklarning shakllanishida ijtimoiy omillarning o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy omillar, udumlar, urf-odatlar, olqishlar, istaklar, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, yubiley to'yi, bayramlar.*

Xalqimizda "yaxshi niyat-yarim davlat" iborasi qollaniladi. Insonlar o'rtasida bir-biriga yaxshi niyat, tilaklar bildirish turmushning barcha sahifalarida o'z ko'inishi ni topgan va udumlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jaloliddin Rumiy ta'kidlab o't ganiday "So'z libos. Ma'no shu libos ostida yashiringan sir" yaxshi niyat qilish, tilak bildirish asosida ijobiy istak ma'nosi mujassamdir. Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar leksikasiga xos xususiyatlardan biri xalqimizning ijtimoiy hayoti dagi omillarda ko'rinadi.

O'zbek va qoraqalpoq xalqi azal-azaldan mehmondost, bolajon, keng fe'l, mehribon insonlari bir-biriga xushmomila xalq bo'lib kelgan. Xalqimizning ijtimoiy hayotida har xil urf-odatlar, udumlarning qo'llanilishida bir-biriga yaxshi niyatlar bilan tilaklar bildirishida ijobiy istaklar e'tirof etilgan. Bu oilaviy marosimlarda o'z ko'inishini topgan. Oilada farzand dunyoga kelganidan boshlab hayotda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni beqiyos. Sababi unda farzand uchun, uning tarbiyasi uchun ahamiyatli bo'lgan, hayot yo'lida unga hamroh bo'lguvchi ijobiy istaklar, yaxshi niyatlar berilgan.

Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda o'zbek xalq olqish va qarg'ishlari mavzusi yoritilgan bo'lib, bu manbalarda ijobiy istak ifodalovchi birliklar- olqishlarning ijro o'rni, vazifasi va poetik tabiati haqida ham ma'lumotlar berilgan. Jumladan, olqishlar mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'lingan:

1. Kundalik maishiy olqishlar.
2. An'anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlar.

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, kundalik maishiy olqishlar inson faoliyatining deyarli barcha tomonlarini qamrab oladi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar bu xil olqishlarni ijro o'rniga ko'ra uch turga ajratishgan:

1. Uchrashuv olqishlari.
2. Dasturxon olqishlari.
3. Biror ish yoki tadbir boshlanishida aytiluvchi olqishlar.



Nutqimizda istak birliklari quyidagi holatlarda qo'llanadi: o'zaro uchrashuv, salomlashuvda; suhbat chog'ida; yangi uyga ko'chib kirilganda; mehmonga borganda; mehmon kelganda; bayramlarda; to'yda; xayrlashuvda; kechirim so'ralganda; uyqudan oldin; yo'lovchi bilan uchrashganda; ovqatdan oldin; ish vaqtida; chaqaloqqa nom berganda; hammomdan chiqqanda; qo'ylarning juni qir qilganda, yer haydash tugaganda; shuningdek, homilador ayolga; shogirdga; bemorga.

O'zbek va qoraqalpoq tili leksikasidagi olqish va istak birliklarining mazmuniy jihatlarini quyidagicha tasnif qildishimiz mumkin:

1. Yurtning tinch, farovon bo'lishini tilash mazmunidagi olqish va istak birliklari.
2. Salomatlik va uzoq umr tilash mazmunini ifodalovchi istak birliklari.
3. To'y va yubileylarda aytiladigan muborakbod etish mazmunini bildiruvchi olqish va istak birliklari.
4. Farzand bilan bog'liq ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar.
5. Dasturxon atrofida aytiladigan olqish birliklari.
6. Oq yo'l tilash mazmunini ifodalagan ijobiy istak birliklari.
7. Imorat qurish oldidan aytiladigan ijobiy istak birliklari.
8. Bayram bilan muborakbod etish mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.
9. Ollohga iltijo mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.
10. Taskin berish mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.
11. Qutlash, tabriklash mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.
12. Ish jarayoniga aloqador olqish birliklari.
13. Rasm-odat ifodalovchi olqish birliklari.
14. Modal munosabatni ifodalovchi olqish birliklari.

Masalan: **Beshik to'yida** yangi tug'ilgan chaqaloqqa yaxshi niyatlar bilan beshik to'yi o'tkaziladi. Bunda ota-onasining fazandli bo'lganiga shukronaligi, farzandiga uzoq umr tilash, uning kelajagiga umid bildirishi bilan birga beshik to'yiga kelgan odamlar ham yangi tug'ilgan go'dakning "umri, rizqi bilan bergan bo'lsin", "Ota-onangiz bag'rida katta bo'lishingizni Alloh nasib etsin. Umiringiz doimo sog'lik, baxt, tinchlikka to'la bo'lsin", "Isming tilga olingan joyda gullasin, bahor hidi to'lsin" deb duo qilishadi (So'zlashuvdan). Katta mamolarimiz bo'lsa go'dakni beshik ka solib, alla aytib yaxshi niyatlar bildirishgan. Allaning mazmun mohiyati esa ijobiy istaklar bilan berilgan qo'shiq qatorlaridan iborat.

Taqa-tuqi gavora bo'lsin
Dushmani ovora bo'lsin
Uyquasi beshikda qolsin
Dushmani eshikda qolsin.

Sunnat to'yi-bu asosan islom dini bilan bog'liq bo'lib, ota-onasining og'li uchun o'tkaziladigan marosimlardan hisoblanadi va xatna to'yi beb ham yuritiladi. Mahal ladagi yoshi ulug'qariyalar qarindosh-urug'lar bilan birgalikda xudoyi qilish, el-yurtga osh berish shular jumlasidan hisoblanadi. Bu to'yda asosan farzand uchun ezgu niyatlar bilan yaxshi tilaklar bildiriladi. Qoraqalpoq xalqida "Su`nnet bolip atirg'an



balamiz elge, xaliqqa belgili azamat er jigiti bolip jetilissin”deb niyat qili shadi (So’zlashuvdan).

Nikoh to’yi- bu o’z ichiga sovchi kutish, fotiha toyi, yor-yor aytish, kelin salom kabi an’analarni oladi. Bunda xalqimiz oila quriyotgan yosh kelin-kuyovga yaxshi niyatlar bilan tilak bildirishadi. Bobo-mamolarimiz esa qo’llarini duoga ochib “Qo’shganingiz bilan qo’sha oqaring. Uvali-juvali bo’ling. Serdavlat, serfarzand bo’ling”deb yaxshi niyat bildirishadi (So’zlashuvdan).

Umri uzun bo’lsin
Egani qatig bo’lsin
Qozoni to’la osh bo’lsin
Tevaragiga bosh bo’lsin
O’shog’i to’la kul bo’lsin
Tevaragi ul bo’lsin.

Yubiley to’yi-bu inson o’z umri davomida yo’shi bilan bog’liq o’tkaziladigan tad birlar hisoblanadi. Bunda odamlar bir-birlarini tavallud ayyomi bilan qutlab yaxshi niyatlar bildiradi.”Tabbaruk yo’shingiz muborak bo’lsin! Sizga uzoq umr, sog’liq-salomatlik tilayman”(So’zlashuvdan). Iloyo, baxtli hayot kechiring, otajonim! Xonadonimizdan baxt-iqbol, tinchlik-omonlik yuz o’girmasin! Brilliant to’ylaringizni nishonlash nasib etsin! (So’zlashuvdan)

Bizning ijtimoiy hayotimizning yana bir ko’rinishlarida bu bayramlar bilan bog’liq. Yurtimizda bayramlar keng turda belgilanadi, ayniqsa milliy bayramlarimiz mustaqillik yillarida keng turda nishonlanmoqda. Bayram kunlari insonlar bir-birlariga yaxshi tilaklar bildirishadi. Masalan: Navruz bayramida

Azizam baxt iqbol doim yor bo’lsin
Yurgan yollaringiz gullarga to’lsin
Omadingiz ko’rib ko’zlar quvonsin
Navruz ayyomingiz muborak bo’lsin(Sherlar uz.com).
Navruzdandan-navruzga yetkaza bersin(So’zlashuvdan).

Yangi yil bayrami: Yangi yil baxt, omad, quvonich olib kelsin!(So’zlashuvdan)

Kirib kelayotgan yangi 2023-yil bilan tabriklayman, sizga chin dildan baxt-sa’odat, sog’lik, salomatlik, oilaviy hotirjamlik tilayman!(So’zlashuvdan)

Yangi yil bilan! (Gazetadan) Yangi yilingiz muborak bo’lsin! Yangi yilda yangi orzularingiz ro’yobga chiqsin! (So’zlashuvdan) Qoraqalpoq tilida: Ja’na jillaringiz benen! Ja’na jilda mol ırsiqi-nesiybe, bekkem den-sawlıq, jumıslarınıızda tabıs bolsın (So’zlashuvdan).

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, ijobiy istakni ifodalovchi birliklar mazmunan turlicha bo’lib, ular turli nutqiy situatsiyalarda (farzand ko’rish, to’y o’tkazish, umrning yirik sanalarini nishonlash, muqaddas kunlarni qarshilash, uchrashuv, safarga kuzatish kabi turli marosimlarda) bir-birlariga salomatlik, tinchtotuvlik, uzoq umr, baxtli hayot, omad, tunganmas kuch-quvvat, serfarzand, serdavlat bo’lish kabi ijobiy istak mazmunini ifodalash uchun qo’llanadi. Bunday birliklarning



aksariyati nutq etiketlariga aylangan bo'lib, ularda xalqimizning o'ziga xos qadriyatlari aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. (Sherlar uz.com).
2. M.Jumaboev "O'zbek bolalar adabiyoti" T-2002.
3. M.Jo'raev "Oy oldida bir yulduz" T-2000.
4. Q.Ayimbetov "Xaliq danaligi" N-1988.
5. K.Imomov.,T.Mirzaev.,B.Sarimsaqov,O.Safarov "O'zbek xaliq poetik ijodi" T-1990.